

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 4 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbanov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i>	
"KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i>	
AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrukh Gulomovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i>	
YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Eanova Nilufar Pulatovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abdurahimova Saboqhat Erqash қизи</i>	
БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i>	
MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i>	
AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA) .....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i>	
QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI .....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Sultonov Bahodir Fайзуллаевич, Turaeva Gulizahro Kaxhorovna, Norbўtaev Baxtiёр Abdurahimovich</i>	
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ .....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salieva</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i>	
QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rakhimov Oйбек Bахтиёрович</i>	
СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i>	
BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH	
YO'LLARI .....	111-125

<i>Fatmaхова Муниса Абдухамитовна</i>	
ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ	
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133

<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY	
MEXANIZMNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140

#### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i>	
RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA	
TAMOYILLARINING AHAMIYATI .....	141-147

<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i>	
IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH	
EVOLYUTSIYASI .....	148-154

<i>Каримова Гулчехра Абдукаримовна</i>	
ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС	
ЖИҲАТЛАРИ .....	155-163

<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH	
NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168

<i>Muminov Nozim Naimovich</i>	
THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND	
TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175

<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i>	
СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180

<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i>	
SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI .....	181-184

#### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛарнинг	
ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	185-191

<i>Петрухина Наталья Михайловна</i>	
КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО	
СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197

<i>Исаев Оман Рисалиевич</i>	
ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205

<i>Родина Ирина Витальевна</i>	
АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА	
«ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211

<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i>	
THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE	
OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i>	
ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i>	
THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i>	
PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нулуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i>	
СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Xayrulloeva Sitora Lutfulloevna</i>	
PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i>	
“LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Tukhtayeva Наргисхон Исамутдиновна</i>	
ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i>	
ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbanova Aziza Bozor qizi</i>	
DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i>	
TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i>	
GASTRONOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRONOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330

*Asqarova Madina Boymurod qizi*

KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI ..... 331-334

*Калниязов Есемурат Шамшетович*  
ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ ..... 335-342

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Bahodir To'raev*

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI ..... 343-351

*Tursoatov Содик*  
РАФБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ..... 352-357

*Хидиров Фурқат Шуқуруллаевич*  
МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИННИГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ..... 358-363

*Rahimbaev Уткир Файзуллаевич*  
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ ..... 364-372

*Tursynbaev Азизбек Халмурзаевич*  
МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ ..... 373-377

*Yakubov Abduraxmon Turayevich*  
TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI ..... 378-382

*Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli*  
YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENTSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA ..... 383-387

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Хайров Расим Золимхон угли*  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ..... 388-395

*To'rayev Panji To'xtayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH ..... 396-400

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*  
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING AHAMIYATI ..... 401-406

*Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna*  
TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH ..... 407-411

*Turdimurodov Dilmurod Yo'l doshevich*  
SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI ..... 412-418

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ	
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В	
ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA XORIJY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI	
QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHIYATINI OSHIRISH	
METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i>	
ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ	
МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i>	
MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINING	
AHAMİYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i>	
"ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMİYATI	
.....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i>	
IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i>	
TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O`QITISH	
TEXNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i>	
O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY	
FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i>	
TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i>	
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI	
LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i>	
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ	
ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Каҳрамонович</i>	
ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО	
МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*  
IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING  
INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*  
ЎҚУВ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539

**Otaxonova Odinaxon Inomovna**

Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [o.o.otaxonova@mail.ru](mailto:o.o.otaxonova@mail.ru)

**QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA  
BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**Annotatsiya.** O'zbekistonda qoramolchilik mahsulotlari iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslar, qoramolchilikda ozuqa bazasini yaxshilash, qoramolchilikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda qoramolchilik mahsulotlari yetishtirishda yuzaga keladigan munosabatlar majmuini tadqiq etgan olimlarning fikrlari tahlil qilingan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** qoramolchilik, mahsulot, ozuqa bazasi, omillar, rivojlantirish, samaradorlik, yaxshilash, yetishtirish.

---

**Otakhonova Odinakhon Inomovna**

Independent applicant of the Tashkent State Agrarian University

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE FOOD BASE  
WHILE INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF ANIMAL PRODUCTS**

**Abstract.** The opinions of scientists who have studied the reforms carried out in Uzbekistan to improve the economic efficiency of livestock products, the adopted regulatory framework, factors influencing the improvement of the feed supply in livestock farming, the development of livestock farming, as well as the complex of relations that arise when growing livestock products are analyzed.

**Key words:** cattle breeding, products, feed supply, factors, development, efficiency, improvement, cultivation.

---

**Отахонова Одинахон Иномовна**

Независимый соискатель Ташкентского государственного  
аграрного университета

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЛУЧШЕНИЯ КОРМОВОЙ БАЗЫ ПРИ  
ПОВЫШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОДУКЦИИ  
ЖИВОТНОВОДСТВА**

**Аннотация.** Проанализированы мнения ученых, исследовавших проводимые в Узбекистане реформы по повышению экономической эффективности продукции животноводства, принятые нормативно-правовые основы, факторы, влияющие на улучшение кормовой базы в животноводстве, развитие животноводства, а также комплекс отношений, возникающих при выращивании продукции животноводства.

**Ключевые слова:** скотоводство, продукция, кормовая база, факторы, развитие, эффективность, улучшение, выращивание.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N13>

Jahonda chorvachilik tarmog'i qishloq xo'jaligi yerlarining yirik foydalanuvchisi hisoblanadi. Bu chorva mollarining bevosita yaylovlarda boqish yo'li bilan yoki bilvosita yem-xashak va ozuqalarni yetishtirish orqali namoyon bo'ladi. Global masshtabda qaraganda qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishi qiymatining 40 foiziga yaqini chorvachilikka to'g'ri kelmoqda. Aholi va ularning daromadlarining o'sishi hamda turmush tarzining o'zgarishi natijasida chorvachilik jadal rivojlanmoqda. "2030 yilga borib rivojlanayotgan davlatlarda chorva mahsulotlariga jami talab 2 barobarga ortishi kutilmoqda"[1]. Global iqlimning o'zgarishi, yaylovlar degradatsiyasi, aholining demografik o'sishi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining ortib borishi mavjud resurslardan yanada samarali foydalanishni, jumladan qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda servis sohasidan tizimli foydalanishni takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hududlarda servis xizmatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishni, jumladan naslchilik va zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatishni, ratsion asosida oziqlantirishni, imtiyozli bank xizmatlarini amalga oshirishni, mahsulotlarni qayta ishlashni tashkil etish va shu kabi ishlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamiz chorvachilik tarmog'ida bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lAMDAGI islohotlar amalga oshirilib, xususiy mulk ustuvorligi ta'minlandi, ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy asoslari izchil mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, qishloq joylarida bandlikni oshirish, ichki bozorni go'sht, sut mahsulotlari bilan to'yintirishning muhim manbasi sifatida qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik kabi sohalar ham keng rivoj topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil

11-sentyabrdagi ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sod Farmonida chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan[2].

Jumladan, chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlarga zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatish, omixta yem ta'minoti tizimini rivojlantirish, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosidagi xizmatlar ko'lамини kengaytirish orqali xususiy tarmoqda chorva mollari soni va mahsulorligini oshirish, naslchilik ishlari ko'lамини kengaytirishni iqtisodiy va moliyaviy dastaklar orqali rivojlantirish zarurati ortmoqda. Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash bilan birgalikda agrar tarmoqning eksport salohiyatini kengaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirish va chorvachilik tarmog'iga xizmatlar ko'rsatish sohalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda aholi jon boshiga chorvachilik mahsulotlari iste'moli darajasini oshirish, qayta ishslash va chorvachilik tarmog'iga xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish lozim bo'ladi. Ammo, respublikada chorva mollari soni muntazam ravishda ortish tendensiyasiga ega bo'layotganiga qaramay, chorva mollari mahsulorligi pastligicha qolmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, sigirlar sut mahsulorligining pastligi aksariyat hollarda ozuqaning ta'minot darjasini, sifatining talabga javob berishi, zooveterinariya va naslchilik ishlari qanday yo'lga qo'yilmaganligiga bog'liq. Qoramolchilik tarmog'i rivojlanishi holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tarmoqni omixta yem bilan ta'minlash, chorva mollari naslini yaxshilash, kasalliklarga qarshi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, davolash va boshqa shu kabi xizmatlarni tashkil qilish masalalari faqatgina ishlab chiqaruvchilar tomonidan tashkil qilinishi qiyin bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

Qoramolchilikni jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan ta'minlash orqali mamlakatimiz oziq-ovqat

xavfsizligini mustahkamlash hamda respublikamizning eksport salohiyatini yuksaltirishga zamin yaratadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish, ularning ozuqa bazasini yaratish, innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarish kabi maqsadlar belgilab olingan[3]. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda albatta, tarmoqqa investitsiyalarni jalg etish imkoniyatlarini o'rghanish, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ozuqa yetishtirishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga muhim hisoblanadi.

Shuningdek, qoramolchilik mahsulotlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishda ozuqa bazasini yaxshilash masalalariga hukumat darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda hamda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2022-yil 8-fevraldagagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-son qarori[4],

2019-yil 18-martdagи PQ-4243-son "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi[5], qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qoramolchilikni yanada rivojlantirish, mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish, ozuqa bazasini yaxshilaishi muhim bo'lib xizmat qiladi.

Qoramolchilik chorvachilikning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini sut va go'sht mahsulotlari hamda yengil sanoatni teri va boshqa xomashyo bilan ta'minlashda ustuvorlikka ega. Respublikada aholi jon boshiga qoramollar 0,38 boshdan, sut ishlab chiqarish 197 kilogrammdan va go'sht 21 kilogrammdan to'g'ri kelmoqda. Тиббиёт normasiga nisbatan ta'minlash 2,64 va 4,0 baravarga kam. Demak, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish mustaqilligiga erishishdek ustuvor vazifa o'z yechimini kutmoqda. Inson organizmi kuniga 30 gramm go'sht oqsiliga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojni asosan go'sht va go'sht mahsulotlari orqali qondiradi. Yetishtirilayotgan go'sht mahsuloti asosan qoramollardan olinadi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi qoramolchilik mahsulotlari bo'lib, aholini sut va go'sht mahsulotlari bo'lgan ehtiyojini ya'ni, sutning 95 foizi va go'shtning 63 foizi qoramolchilik sohasiga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, jahonda aholining turmush darajasining holati ko'p jihatdan ularning yashash tarziga, daromadlariga, ovqatlanish va kiyinish shart-sharoitlariga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, aholining real tarmoqlarda, chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uzluksizligini ta'minlash va uning mahsuldarligini oshirishda esa ozuqa bazasini yaxshilashni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida servis turlarini kengaytmasdan va ularni zamon talablari asosida rivojlantirmasdan qoramolchilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Bu borada respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 16-fevral kuni "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'r'in tutgan soha — chorvachilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, sohada ilg'or texnologiyalarni keng qo'llash orqali go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari" yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda pandemiya davom etayotgani, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi kabi omillar dunyo bo'ylab oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'sishiga

sabab bo'layotganligi, aholi kundalik iste'mol xarajatlarining 30 foizini go'sht, sut va tuxum kabi mahsulotlar ekanligini hisobga olib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim tarmog'i – chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash, resurs tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash orqali go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmini oshirish har kungidan ham dolzarb va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda", deb ta'kidlandi[6].

Shu jihatdan kelib chiqib, mamlakatimiz va xorijning qator agrar-iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida qoramolchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ozuqa bazasini yaxshilash, yaylovlardan samarali foydalanishning ahamiyati obyektiv zaruriyati o'r ganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligidan V.I.Gayduk, Yu.I.Bershiskiy, Ye.A.Shibanixin, V.V.Berezengov. Ye.I.Artemovalar hammuallifligidagi monografiyada sut yo'nalishidagi qoramolchilik xo'jaliklarida tejamlı resurs texnologiyalarni qo'llash, yem-xashak yetishtirish, ozuqa bazasini yaxshilash va xo'jaliklar samaradorligining nazariy jihatlari ko'rib chiqqanlar. Bunda, qishloq xo'jalik korxonalarini misolida yem-xashak yetishtirishni rivojlantirish darajasi o'r ganilgan, sut yo'nalishidagi xo'jaliklar holati tahlil etilgan[7]. Shu bilan birga, chorvachilikni rivojlantirishda boshqa barcha omillar bilan bir qatorda sifatli ozuqa yetishtirish masalalari muhim o'r in egallashi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekistonlik olimlardan A.A.Toshmurotovning ilmiy ishlarida iqtisodiy barqarorlikning asosini tashkil etuvchi omil — aholi farovonligi jumladan, uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi tibbiy asoslangan miqdor va sifat darajasida bo'lishini ta'minlash, qishloq xo'jaligi salohiyatidan oqilona foydalanish va umuman, agrosanoat majmuasi samaradorligini oshirish yo'llari o'r ganilgan[8]. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning muqobil varianti keltirib o'tgan. Unda ko'rsatilgan 11 turdag'i mahsulotdan 3 tasi chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ekanligi qayd etilgan. Shu bois, kelajakda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish iste'mol sifatini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

G.N.Sanayevning ishlarida qoramolchilik tarmog'ida sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan istiqbolli fermer xo'jaliklari misolida mahsulot yetishtirish xarajatlari hisobi va ular tannarxini aniqlashning metodologik va uslubiy jihatlari o'r ganilgan[9]. Jumladan, "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda birinchi o'rinda mulkiy munosabatlar bo'lib, bunda barcha ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tovar-pul munosabatlarining asosiy negizi sifatida qaraladi" deb ta'kidlangan. Demak, sut-go'sht mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirishda tovar-pul munosabatlari asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha, qoramolchilik mahsulotlari yetishtirishda talab va taklif asosida tashkil etish, mulkchilik shakllarida olingan sof foydaning ishlab chiqarish bo'g'lnlari o'rtasida taqsimlash munosabatlari tahlil etilsa, xo'jaliklarning bozorlarga yaqinlik omillari, xususiy kredit xizmatlardan samarali foydalanish imkoniyatlari ortib boradi.

T.S.Mallaboyev tadqiqotlarida qoramolchilikda intensivlik ko'rsatkichlarini tizimlashtirish ko'rsatkichlarini uch qismga, ya'ni faktorial, natijaviylik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ajratib tahlil etgan holda, miqdor va qiymat ko'rsatkichlariga bo'lib o'r ganan[10]. Ammo ishda xizmat ko'rsatish korxonalarini bilan mulkchilikning turli shakllari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga e'tibor qaratilmagan. Shu bois, bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib, har bir xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda qoramolchilikdagi sutchilik yo'nalishdagi

xo'jaliklarda sigirlarning sut mahsuldorligi va ularning intensivlik samaradorligiga ozuqa bazasining ta'siri yuqori hisoblanadi.

Mamlakat aholisinining sut va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish o'z navbatida chorva mollari mahsuldorligini oshirish, tarmoqning mustahkam ozuqa bazasini yaratish, xizmat ko'rsatishni sifat jihatdan yaxshilash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tizimini texnik-texnologik jihatdan modernizatsiya qilishda agrar tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Dunyo aholisining o'sishi ortib borayotgan bir paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ham kundan-kunga ortadi. Ilmiy asoslangan me'yorlarga ko'ra jon boshiga iste'mol qilinadigan barcha mahsulotlarning 60%, ularni kalloriyaga aylantirganda esa 30% ni chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.


Respublikada qoramolchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishda ozuqa bazasini yaxshilash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhimdir:

- ilm-fan va ilg'or tajriba yutuqlari asosida ozuqabop ekinlar hosildorligini oshirish choralarini ko'rish;
- ozuqabop ekinlar hosildorligini oshirishda serhosil nav va duragaylardan keng foydalanish hamda jadal texnologiyalarni joriy qilish;
- ozuqabop ekinlarning elita, I – reproduksiyaga mansub ertapishar nav va duragay urug'liklarini va oraliq ekinlar urug'liklarini ko'paytirib borish, ozuqabop ekinlarning birlamchi urug'chiligi faoliyatini kuchaytirish, barcha viloyatlardagi hududiy ozuqabop ekinlar urug'chiligiga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari moddiy – texnika bazasini mustahkamlash;
- asosiy va takroriy maydonlarda ekiladigan makkajo'xoridan don yetishtirish salmog'ini oshirish.

Respublikamizda yaylov chorvachilagini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Buning uchun chorva mollarining mahsuldorligini oshirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va sifatini oshirish uchun o'tloq va yaylovlarni yaxshilash va ulardan samarali foydalanish, yaylovlarni boshqarish mexanizmini ishlab chiqish, qurg'oqchilikka chidamli yaylov o'simliklarining urug'chiligini tashkil etishning ilmiy-innovatsion jihatlarini takomillashtirish va samarali usullarini ishlab chiqish zarur.

Mustahkam ozuqa bazasini yaratish uchun sifatli ozuqalar tayyorlashda sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, buning uchun dag'al va shirali ozuqalardan, oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan hamda tabiiy organik ozuqalardan chorva mollarini oziqlantirishda samarali foydalanish orqali chorva mollarini nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik, texnologik va boshqa muhim xo'jalik foydali belgilarni takomillashtirib, yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Chorva mollarini hayotiy zarur bo'lgan to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun balanslashtirilgan me'yorlar asosida ratsionlarni yanada mukammallashtirish yuqori mahsuldor mollarning genetik salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda beda va tabiiy o'tlar pichani, silos, senaj, ildizmevalilar, vitaminli o't uni, tabiiy sut o'rnini bosuvchi sun'iy sut hamda tabiiy organik ozuqalardan foydalanish yuqori samaradorlikni belgilaydi.

Respublikamizda agrar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'nalishlari, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar, bugungi kunda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish borasida shakllangan iqtisodiy mexanizmlar nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, qoramolchilikda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin bo'ladi (1-rasm).



### 1-rasm: Qoramolchilikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Muallif ishlanmasi.

**Tabiiy-iqtisodiy omillar.** Ushbu omillar qoramolchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanib, aksariyat hollarda respublikaning hududiy xususiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

**Texnik va texnologik omillar.** Ushbu omillar qoramolchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish jarayonining texnik jihatdan qurollanganlik darajasi va ishlab chiqarish jarayoning zootexnologik bilimlar (soha mutaxassislari malakasi), kasalliklarga qarshi veterinariya preparatlari bilan ta'minlash imkoniyatlarining hamohang amalga oshirilishi darajasi bilan izohlanadi.

**Institutsional-huquqiy omillar.** Ushbu omillar qoramolchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarining mavjud muammolarni real hal etishga qaratilganligi, dehqon xo'jaliklari ishlashi va yashashi uchun qulay imkoniyatlar yaratganligi darajasi orqali ta'sir ko'rsatadi.

**Iqtisodiy-geografik omillar.** Ushbu omillar respublikamiz hududlari bo'yicha qoramolchilik mahsulotlari yetishtiruvchi dehqon va fermer xo'jaliklarining mahsulotlarni sotish bozorlariga, axborot olish va resurslar xarid qilish markazlariga nisbatan masofa jihatidan uzoq-yaqin joylashganligi tufayli mahsulot birligi hisobiga vaqt va transport xarajatlari sarfi o'zgarib borishi orqali namoyon bo'ladi.

**Agrodemografik va iqtisodiy-psixologik omillar.** Qoramolchilik xo'jaliklarida sut ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga ushbu omilning ta'siri birinchi navbatda qishloq joylarda istiqomat qiluvchi aholi tarkibida yoshlarning salmog'i o'zgarishi, yoshlari o'rtasida chorvachilik sohasini rivojlantirishga bo'lgan manfaatdorlik darajasi o'zgarishi amalga oshiriladigan asosiy maqsadlar xarakteri va uning hududlar bo'yicha o'zgarib borishi kabi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi va mahsulot yetishtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Chorva ozuqa bazasini mustahkamlashda chorva ozuqa ekinlari maydonini kengaytirish, ekinlar hosildorligini oshirish, yaylovlar unumidorligini oshirish qatorida gidropnika usuli asosida chorva ozuqasi ishlab chiqarishni ommalashtirilishi ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Buni yurtimiz va xorijiy mamlakatlardagi ilg'or chorvadorlar tajribasi tasdiqlamoqda. Ayni paytda ko'plab: Yevropa davlatlari, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston singari mamlakatlarda gidropnika usuli asosida 7 kunda dondan tayyorlangan ko'k massani chorva ozuqa sifatida chorvaga berish amaliyoti keng tarqalgan. Mazkur usulning bir qator muhim afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi[11].

**a) Iqtisodiy afzalliklari:**

- mehnat, suv va ishlab chiqarish xarajatlarining kam mablag' talab qilishi;
- ishlab chiqarish davrining qisqaligi bois, aylanma mablag'lar tezroq aylanishi;
- yangi texnologiyadan foydalanishda yuqori malaka talab etmasligi;
- texnologik uskunani xohlagan joyda o'rnatish va uni ko'chirish katta mablag' talab etmasligi;
  - ko'k massa tayyorlash jarayonida donni suv bilan namlashning qo'lda yoki avtomatlashtirilgan holda bajarish imkoniyatlari mavjudligi;
  - yerda ekiladigan chorva ozuqasi ekinidan ko'ra, 1 metr kvadrat maydonda ko'proq ko'k massa olish mumkinligi;
  - chorva mollarini boqish jarayonida qo'llaniluvchi qo'shimcha vitaminli va mikroelementlarga boy chorva ozuqasini sotib olish xarajatlari tejalishi;
  - chorva ozuqasi chiqindisini yo'q qilish xarajatlari deyarli yo'qqa chiqishi; — chorva ekinlarini ekish uchun yer maydoni, suv va boshqa resurslar tejalishi;
  - chorva mahsulordagi oshishi, mahsulot tannarxi pasayishi va hokazo.

**b) Biologik afzalliklari:**

- yangi texnologiyadan foydalanilgan ko'k massada donga nisbatan vitamin va mikroelementlar ko'pligi;
- chorva mollari organizmida ko'k massaning hazm bo'lishi tezligi va vitamin va mikroelementlar so'riliishi yuqoriligi;
- vegetatsiya davri (7-8 kun ) qisqaligi;
- xohlagan iqlim, fasl va joyda ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi;
- ishlov bermay faqat donni namlash orqali ko'k massani yetishtirish mumkinligi.

**v) Texnologik afzalliklari:**

- gidropnika usuli asosida dondan ko'k chorva ozuqasi ishlab chiqarish texnologiyasi o'ta sodda, qo'llanishi osonligi va xalqimizga tanishlighi;
- texnologik vositalarni o'rnatish va jarayonni boshlash ko'p vaqt va mablag' talab etmasligi hamda sarflangan investitsiyalar tezroq qoplanishi;
- texnologik jarayonda bajariluvchi ishlarning ozligi va ularni belgilangan rejimda bajarilishi (masalan, donni namlash sutkasida 2-3 marta aniq vaqtda amalga oshiriladi);

- texnologik vositalarning ixchamligi va yuqori mobillikka egaligi (joyini o'zgartirish qulay, katta mablag' va vaqt talab etilmaydi);

- yangi texnologiyani chorva boshiga mos ravishda, xohlagan uy, dehqon va fermer xo'jaliklarida qo'llash imkoniyati mavjudligi;

- respublikamizning deyarli barcha aholisining mazkur texnologiya bilan tanishligi (ya'ni donni ko'kartirish jarayonining milliy taom sumalak uchun bug'doy maysasini ko'kartirishga o'xshashligi);

- ekologik toza va xavfsizligi;

- texnologik jarayon kechishini nazorat qilish osonligi va uning ko'p vaqt talab etmasligi.

Mazkur afzalliklarga ega gidropnika usulini chorva uchun ko'k massa yetishtirishda ommaviy qo'llanilishi mamlakatda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda almashlab ekishni har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib yo'lga qo'yilishi, ekinlarni joylashtirishni optimallashtirish va oraliq ekinlar ekilishining ilmiy asosda tashkil etilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshishini ta'minlaydi. Gidropnika usuli asosida chorva uchun ko'k massa ishlab chiqarishda: go'ngni yerga kiritish, yerni ekishga tayyorlash, ekishni mexanizmlar vositasida amalga oshirish, sug'orish va irrigatsiya-melioratsiya tizimidan foydalanish, o'simlikni biologik va kimyoviy himoyalash xizmatlari, qator oralari orqali ishlov berish singari texnologik amaliyotlarni bajarishga ehtiyoj qolmaydi va ko'p miqdordagi mehnat va moddiy resurslar tejalib, ekin maydonlariga boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish imkoniyati vujudga keladi. Gidropnika usulining mamlakat chorvachiligidagi keng qo'llanishi tarmoq rivojiga ijobjiy ta'siri bilan birga, chorva ozuqasining tannarxini arzonlashtiradi, pirovardida, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorligini oshirishini ta'minlaydi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Bruinsma J. World Agriculture: Towards 2015/2030 An FAO perspective. London: Earthscan Publications Ltd- 2003. pp. 432.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 martdagagi "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4243-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 fevral kuni "Chorvachilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, sohada ilg'or texnologiyalarni keng qo'llash orqali go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishi", «Xalq so'zi», 17.02.2022 y., 36 (8098).
7. Гайдук В.И. и др. Эффективность государственной поддержки животноводства на Кубани / В.И.Гайдук // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2001. - № 4. - с. 16-19.

8. A.A.Toshmurotov Chorvachilikni rivojlantirish davr talabi. 2010.
9. G.N.Sanaev "Qoramolchilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish" mavzusidagi 08.00.08-«Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit» ixtisosligi bo'yicha i.f.n. avtoreferati. Toshkent 2010. 24 bet.
10. Т.С.Маллаев Экономические проблемы интенсификации скотоводства. Эко. фан. док. дис. – Т., – 364 с.
11. I.Ibrohimov Chorva ozuqasi gidropnika usulida yetishtirilmoqda // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 21-dekabrdagi soni.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº 4 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).